

OILADA DASTLABKI ODOB QOIDALARINI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONANING O'RNI

A.M.Ibragimova – magistrant

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogik instituti

Tayanch so'zlar: oila, oilaviy munosabatlar, ota-ona va bola munosabati, oilaning jamiyatdagi o'rni, bola tarbiyasida odob ahloq qoydalarining o'rni

Ключевые слова: семья, семейные отношения, детско-родительские отношения, роль семьи в обществе, роль нравственности в воспитании ребенка

Key words: family, family relations, parent-child relations, the role of the family and society, the role of morality and the upbringing of the child

Kirish. Bugungi o'z-o'zini boshqarish, ya'ni mahallalar tizimida oila jamiyatning ijtimoiy poydevoridir. Shunga ko'ra, jismoniy soo'lom, ma'nan barkamol, axloqan pok va yuksak madaniyatli yosh avlodni voyaga etkazish oiladan boshlanadi. Oila hayotning asosiy maqsadi aholini qayta tiklash, bolalar tarbiyasidir. Bolalar tarbiyasining bosh maktabi esa ota-onaning o'zaro munosabatidir. Mana shu oilaviy munosabat madaniyatning takomillashishi yosh avlodning moddiy olam, ijtimoiy hayot haqidagi tasavvurlari, nuqtai nazarlari, tushunchalari, dunyoqarashlari va sharqona odob-axloq qoidalarini, ularga rioya etishning to'g'ri yo'lini ko'rsatadi. Yosh avlodning ma'naviy qiyofasi, ularning hatti-harakati, xulq-atvori dastlab oilaviy munosabat madaniyatida boshlanadi. Har bir inson, u katta va kichikligidan qat'i nazar, o'zining his-tuyo'usini, ichki tuo'yonini, orzu-umidlarini munosabat jarayonida bayon etadi. Shuning uchun ham jamiyat taraqqiyoti, insonlarning yaxlit holda shakllanishi, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatida, hamkorligida, o'zaro ta'sirida vujudga keladi.

Uzoq asrlardan buyon ajdodlarimiz oilaviy hayotni soo'lom turmush tarzining asosiy qismi deb, oilaviy hayotning muqaddasligini e'tirof etib, oilada farzandlarni hayot gulshani deb, ularni baquvvat, aqlli, odob-andishali qilib o'stirishga katta ahamiyat berishgan. Oila pokligi, ma'naviy madaniyati, uning islom shariati asosida shakllanishi, zo'ravonlik asosiga qurilgan munosabatlarga yo'l qo'ymagan. Farzand tarbiyasi oilaning muqaddas vazifasi bo'lib hisoblangan.

Bugungi kunda oila va oilaviy munosabatlar masalasi, eng dolzarb bo'lib, prezidentimizning olib borayotgan dono siyosati natijasida oila institutini qayta qurish, milliy urf-odatlar negizidan kelib chiqib, oilaviy tendentsiyalarni vujudga keltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Oilada farzand tarbiyasida ota-onalar e'tiborning qaratilayotganligiga bo'liq ekanligini nazarda tutib, biz maqolamizni "Oilada dastlabki odob qoidalarini shakllantirishda ota-onaning o'rni" deb nomladik.

Asosiy qism. Oilada bolalarning ruhan va jismonan soo'lom bo'lib o'sishiga oila muhitining ta'siri kattadir, chunki oilaviy muhit qanday bo'lsa, bolalar xuddi shu muhit ta'sirida uho'ayadilar. Oila muhiti bolalarga ta'sir ko'rsatish bilan birgalikda uni atrofidagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa bolalarni ruhan va jismonan soo'lom qilib voyaga etkazish ota-onaning nafaqat shaxsiy ishi, balki, ijtimoiy burchi hamdir. Shunday ekan har bir ota-onaning burch va vazifasiga mas'uliyat bilan yondoshib, oilada har tomonlama soo'lom turmush tarzini qaror toptirish, uning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, farovonligiga erishish bilan bir qatorda, bilimli, aql-zakovatli, udduburon, zukko, ruhan va ma'naviy barkamol insonni voyaga etkazish, shuningdek, oila an'analari, kasb-kori, shajarasining davomiyoligini ta'minlash, farzandni bo'sh vaqtini unumli o'tkazishga erishish, giyohvandlik, maishiy nopoklik, axloqsizlik, nosoo'lom e'tiqod, aqidaparastlik, xoinlik kabi ba'zi bir illatlarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va boshqalar kiradi. Bizning mentalitetimizda farzandlar ota-onalariga o'xshashga harakat qiladilar, ota-onalar esa o'zlari bilib bilmasdan zo'z xarakter va xususiyatlarini, orzu-havaslarini farzandlariga singdirib boradilar. Aynan

ana shunday xarakter xususiyatlaridan biri bo'lgan mehr-muruvvatlilik ota-onadan farzandlariga o'tadi. Ayniqsa, o'smirlik davridagi bolalarga ota-onaning mehribonligi, doimiy nazorati va do'stona maslahati katta ahamiyatga ega. Ammo afsuski, ko'pgina ota-onalar farzandini "bebosh" qilib qo'ymaslik uchun bu ajoyib insoniy tuyo'udan cho'chiydilar. Ular bolaning tantiq, shaxsiyatparast bo'lib qolishidan tashvishlanadilar. Lekin juda ko'p salbiy xususiyatlar bola ota-onaning to'g'ri muruvvatidan, erkalashidan, e'tiboridan mahrum bo'lgan sharoitlarda vujudga keladi. Shuning uchun ham bola o'zining sevishtariga, o'ziga o'amxo'rlilik ko'rsatishiga ishonch hosil qilishi ota-onaning muhim vazifasidir [1:54].

Oilaviy kelishmovchiliklar ko'pgina biror bir muammo asosida kelib chiqishini inobatga olsak, ayrim oilaviy kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan ota-ona bilan o'smir bolalar munosabatidagi milliy xususiyatlardan yana biri namoyon bo'ladi. Nisbatan olib qaralganda oilaviy muamolar yuzasidan ota-onalar o'z bolalari bilan deyarli fikrlashmaydilar, ba'zan fikr so'raydiganlar qishloq oilalariga xosdir. Jinsga oid oladigan bo'lsak, ota-onalarning bolalaridan fikr so'rashi o'g'il bolalarga nisbatan qiz bolalarda ko'proqni tashkil etadi. Ularga nisbatan qizlarning mavqelari yuqoriroq. Bu albatta, bir tomondan o'smirlarga xos maksimalizm bo'lib, qizlarning onalari bilan emotsional jihatdan yaqinligini ko'rsatadi. Shuning uchun aynan qizlar oilada biror nizo chiqib qolsa, unga aralashib, uni to'xtata olishlariga ishonadilar.

Inson kamolotining ko'rinishlaridan biri-obro'-e'tiborga ega bo'lishdir. Obro' bir kun yoki bir yil mobaynida hosil bo'ladigan jarayon emas. Obro'ni inson hayot mazmunidagi faoliyati jarayonida asta-sekin shakllanib boradi. Ota-onaning oiladagi obro'si tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Obro' oilaviy munosabatlar jarayonida shakllanadi.

Ma'naviy axloqiy xislatlarni, zamon ruhiga mos tushadigan fazilatlarini shakllantirishga qaratiladi. Mazkur toifadagi oila a'zolari davrasidagi suhbatlar, munozaralar, bahslar mulohazalar o'zaro tenglik, hurmat ruhiga bo'ysundiriladi. Oilaviy munosabatlarining ushbu ko'rinishda turli yoshdagi, jinsdagi bolalarga maqsadga muvofiq tarbiyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyati mavjuddir.

Shu boisdan tasodifiy voqea va hodisalarning sodir bo'lish turli tarzda baholanadi va ularga bevosita aloqador oila a'zolari turmush tajribasidan kelib chiqqan holda yo'rao'batlantiriladi yoki tanbeh beriladi, jazolanadi. Bunday odilona amalga oshirilgan muloqot ta'sirida o'g'il-qizlar ruhiy dunyosida ota-onaga nisbatan dildashlik, xushmuomalalik, o'z faoliyati uchun javobgarlik, o'z-o'zini boshqarish kabi muhim insoniy fazilatlar paydo bo'ladi.

Oilada munosabatning yana bir turi «avtoritar» - yoki «obro'talab» munosabat deb atalib, bunda ota-onaning obro'si shaxslararo muloqotda hal qiluvchi, etakchi rol o'ynaydi. Shaxslararo teng huquqlilik, erkin xatti-harakat qilish, tashabbuskorlik bunda o'z ahamiyatini yo'qota boshlaydi. Oila a'zolarining yurish-turishi, xatti-harakati ko'pincha kattalar tomonidan cheklab qo'yiladi. Ota-ona tomonidan tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning asosiy usuli bu jazolash hisoblanadi, biroq, onda-sonda rao'batlantirish usulidan foydalanilganda ham ma'naviy rao'batlantirish

imkoniyatiga ega bo'lmaydi, munosabatdagi bunday noxushlik ota-ona ko'zlagan tarbiyaviy maqsadni amalga oshirmaydi va past samara beradi. Buning oqibati natijasida oila a'zolari o'rtasida, mehr-oqibat hissi pasayadi. Ushbu paydo bo'lgan salbiy nuqtayi nazar ota-onaga nisbatan qo'llaniladi.

Farzandlarda ota-onaga yaqinlik mehr-muhabbat hissi biroz bo'lsada kamayadi, keyinchalik bu tuyu'v uzoqlashishi "begonalashish" tomoniga o'sib o'tadi. Oilaviy turmush munosabati ichida «liberal» (murosasozlik) toifasi ham ko'zga tashlanib turadi. Oila davrasida ota yoki ona murosasoz, ko'ngilchang bo'lishlik tashqi ko'rinishidan iliq ruhiy iqlimini o'ziga aks ettiganday bo'lib tuyulsa ham, aslida unda hamjihatlik, o'zaro tushunish etishmaydi. Murosasozlik ta'sirida farzandlar fe'l-atvorida munofiqlik, ikki yuzlamachilik, kelishuvchilik kabi illatlar tarkib topishi mumkin.

Ota-ona obro'si oiladagi axloqiy tarbiyaning garovi hisoblanadi. Buyuk allomalarning mulohazalariga ko'ra, tarbiyada hazilga yo'l qo'yuvchi jiddiylik hukm surishi lozim, lekin hamma ish hazilga, ermakka, sertakalluflikka, adovat, tirnoq orasidan kir izlashga aylanib ketmasligi kerak. Shu boisdan muayyan pedagogik-ruhiyat qonun-qoidalariga rioya qilingan holda ota-onalar tarbiya printsiplari, usullari, vositalari bilan qurollangandagina haqiqiy nazokatga va odobga erishish mumkin. Bu narsa ulardan chuqur izlanishlarni talab qiladi. Oilada farzandlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishining iltimos, maslahat, ishontirishi, talab qilish, buyruq va tanbeh berish, jazolash, rao'batlantirish singari qator usullaridan o'z o'rnida va me'yorida foydalanilmasa, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi [2:41].

Mezon tuyu'usi va me'yor hissiga amal qilish ota-ona ruhiy dunyosiga, ma'naviyatiga singib borsa, u holda farzandlaridan uzoqlashishi, begonalashish, bordi-keldiga borish, anglashilmovchilik o'oyalarining vujudga kelishi, bachkanalashish, badjahllik, asabbuzarlik hulq-atvori namoyon bo'lmaydi.

Tarbiyaning muhim roli nutq hisoblanadi, shuning uchun ota-ona o'z nutqida yoqimsiz ohang bilan, mantiqsiz va qaytariq so'zlarini ishlatish va qo'llash bilan farzandlarni ranjitishlik, ularda ishonch hissini so'ndiradigan, hazil-mutoyiba, samimiy bo'lmagan fikr va mulohazalardan saqlanish kerak. Hayotda muloyimlikka, shirinsuhanlikka, samimiylikka, sof vijdonligi, dilkashlik va hotamtoylikka hamdardlikka nima etsin!

Odatda, ota-ona nazokatli bo'lgandagina haqiqiy obro'-e'tiborga erishadi. Bundan tashqari, obro'li bo'lmoq uchun ishonch har tomonlama rivojlangan bo'lishi, shuningdek, aqli, axloqiy estetik jihatdan muayyan cho'qqiga erishgan bo'lishi dardkor. Bularning barchasi ota-onadan aql-zakovatli, milliy udum va urf-odatlarini mukammal egallagan shaxs bo'lishni talab qiladi.

Oilaviy turmushda farzand kamol topishini to'o'ri yo'lga qo'yishning asosiy vositasi bolada e'tiqodni shakllantirishdir. Buni bolani faqat ishontirish yo'li bilan amalga oshirsa bo'ladi. Shuning uchun ota-ona o'o'il-qizlarni voyaga etkazishda ularni ko'r qilishga yoki asossiz buyruq berishga tayanmasligi kerak. Xo'sh, ota-ona obro'si farzandlarda qachon paydo bo'ladi? Oilaviy turmush tajribalaridan shu narsa ma'lumki, ota-onaning obro'si davlat va oila a'zolari oldida javobgarlikni his qilishdan boshlanadi. Mabodo, ota-ona o'z ishi, o'z burchi uchun javobgar ekanligini tasavvur qila olsa va unga amaliyotda rioya qilsa, mana shu narsa ularning obro'-e'tibor qozonishi uchun asosiy zamin hisoblanadi. Ularning ruhiy dunyosi, ma'naviyati oilaviy iliq muhit uchun etarli va ta'sirchan bolsa, o'z-o'zidan obro'- qozonilaveradi, oila a'zolari o'rtasida mehr-muhabbatga erishadi.

Agarda ota-onalar o'zlarining hulq-odob xislatlari, his-tuyo'ulari, xatti-harakatlarida bularga rioya qilsalar, oila a'zolari hamda jamoatchilik o'rtasida etarli darajada obro'

qozona oladilar. Lekin, obro' qozonish shaxsning tezkorlik bilan amalga oshiriladigan sifati emas. Ota-ona obro'si butun hayot davomida kundalik ibratli hulqi, axloqi, intizomi, aql-zakovati, kamtarinligi, ishbilarmonligi bilangina qo'lga kiritishadi. Ibrat, namuna, chekilgan zahmat, zakovat, chin ezgu niyat, hayrli ish, samimiylilik evaziga yuzaga kelgan obro' haqiqiy obro' bo'ladi.

Bunday obro' farzandlar xayrxohligi va hamdardligiga sazovor bo'ladi. Natijada, oila a'zolari totuv, osoyishta, inoq, ahil, xotirjam, hamjihat turmush kechiradilar. Oiladagi farzandlar yuksak his-tuyo'uli, ma'naviyatli madaniyatli inson sifatida ruhiy ozuqa oladilar, ular ota-onalari bilan behad faxrlanadilar, his-hayajonga to'ladilar va shu o'urur bilan yashaydilar, asta-sekin eng zarur shaxsiy fazilatlarini egallab boradilar. Oilaviy turmushda ayrim ota-onalar faqat tazyiq o'tkazish yo'li bilan farzandlari hamda boshqa oila a'zolari davrasida obro' orttirishni xohlaydilar, bu narsani yashashning asosiy vositasi deb hisoblaydilar. Bunda ular qo'rqitish, buyruq berish, ruhan ezish, tahqirlash, u tazyiq o'tkazish usullarini qo'llaydilar. Goho ular zaharxandalik va badjahllikni bola tarbiyasining eng muhim usuli deb biladilar. Qo'rqinch asosida bolada vujudga kelgan «tobelikni», «bo'ysunishni» ular o'zlaricha farzandlari davrasida erishgan obro'si deb o'ylaydilar, tarbiyaning bu usuli yuqorida aytib o'tilganidek avtoritar deb aytiladi.

Ayrim ota-onalar esa o'z farzandlari bilan kamroq muloqotda bo'lishni, o'zlarini ulardan uzoqroq olib yurishni shu yo'l bilan obro' orttirishni ham hayol qilishadi. Ularning nazarida go'yo farzand bilan qancha kam uchrashishsa, ma'lum masofadan muomala qilishsa, shuncha ko'proq obro' qozonish mumkin emish. Bu noto'o'ri tushuncha, yuzaki qarorga kelish hisoblanadi. Aksincha, ota-ona o'z farzandi bilan qancha kam muloqotda bo'lishsa, ularning ruhiyati bilan yaqindan tanishmasa, o'z ta'sirini o'tkazmasada, ular o'rtasida begonalashish, befarq bo'lish, his-tuyo'ulari, ishonishlari, xohishlari kelib chiqadi.

Hozirgi paytda shunday ota-onalar ham uchraydiki, ular bolaga faqat rasmiyatchilik bilan munosabatda bo'lish orqali obro' orttirishga harakat qilishadi. O'z maqsadlarini amalga oshirish uchun ular qildan qiyiq qidirishadi, xatti-harakatlarni keltirib chiqargan asl sababdan ko'z yumishadi. Bolaga hadeb tanbeh berishadi, begonalar davrasida kalaka qilishadi. Uning yurish-turishlarini cheklab qo'yishadi, bo'lar-bo'lmasga tanbeh berishadi, arzimaz harakat uchun jerkib, siltab tashlashadi. Farzandlariga ko'p pand-nasihat qilaverish ham shaxslararo munosabatda noxush kechinmalarni vujudga kettiradi. Ota-onalar arzimagan mayda-chuyda muammo, mulohaza, ko'mak uchun ham uzuridan-uzoq o'git-nasihat qiladilar. Farzand erkini poymol etib, mustaqil fikr yuritishi, intilishini oyoq osti qilishgacha borib etadilar. Ular o'zlarining nasihatgo'yliklarini ota-onalik burchi deb baholaydilar.

Mayda gaplik, ezmalik bilan o'o'il-qizlar o'rtasida haqiqiy obro' qozonib bo'lmaydi. Turmushda soxta yaxshilik qilish orqali farzandlari oldida obro' orttirishmoqchi bo'ladigan ota-onalar ham bor. Bunday ota-onalar o'zlarining yumshoq muomalaligi, beozorligi, kechiruvchanligi, yon beruvchanligi, kam talabchanligi bilan farzandlarini o'zlariga rom qilib olishni istaydilar. Ularning fe'l-atvorida, na ma'naviyatida qat'iyatlik, na talabchanlik, na barqarorlik mavjud. Tilyoo'lamachilik, soxtalik, sun'iylik bilan bolada yuksak insoniy xislatlarni, oliyanob his-tuyo'ularni, irodaviy sifatlarni tarkib toptirib bo'lmaydi. Ota-ona obro'sini orttirishda ibrat ko'rsatish usuli muhim rol o'ynaydi, oilada tarbiya ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ota-ona tinmay o'zlarini ham pedagogik, ham ruhiy jihatdan tarbiyalab borishlari kerak, ular o'zlarida etishmaydigan sifatlarni egallab borib, mavjud illatlarni batamom tugatishlari lozim.

Chunki ota-onaning tarbiya jarayonidagi iste'dodi — bu farzandlarga nisbatan muhabbat va sadoqatdan iboratdir.

Ota-onalar o'z farzandlari o'rtasida obro'ga ega bo'lishlari uchun qator chora-tadbirlarni amalga oshirishlari zarur. Farzandlarni yoshiga mos holda qator tarbiyaviy ishlar olib borishlari dardkor.

- Ota-onalar farzandlari davrasida obro' orttirish uchun ularning ruhiy dunyosiga kirib borishlari ayni muddaodir. Chin obro'ga ega bo'lmoqchi bo'lgan har bir ota-ona qimmat vaqtlarini o'z norasidalaridan hech mahal ayamaskliklari kerak.

- Oila davrasida ota-onalarning kuzatuvchanligi, ziyoratligi, sezgirligi, fahmliligi, hozirjavobligi, samimiyligi muhim ahamiyat kasb etadi.

- Ota-onalarning o'z farzandlariga va oilaning boshqa a'zolariga (buva, buvi, kelin va boshqalar)ga mehribonligi obro' orttirishning eng muhim yo'lidan biridir. Farzandlarining kuchiga, qobiliyatiga, aql-zakovatiga xotirasiga, diqqat-e'tiboriga, irodaviy xislatiga, qiziqishlariga, ko'nikma va malakalariga qarab aqliy va jismoniy topshiriqlar berishi hamda o'z vaqtida, uzluksiz ravishda ularning natijasini tekshirish va oqilona baho berish, rao'batlantirish bolalarda qat'iylik, dadillik fazilatini vujudga keltiradi, mustaqil ilmini, tashabbus ko'rsatish sari chorlaydi, kattalarga nisbatan ixlosi ortadi.

- Ixlos, hurmat, intilish, tirishqoqlik obro'ning uzviy zanjirlari hisoblanadi.

- Ota-onalarning ijtimoiy muhitda, jamoatchilik o'rtasida va oila davrasidagi samimiyligi va o'amxo'rliqi ularga katta obro' keltirishi mumkin. Ulardagi samimiyligi, o'amxo'rlik fazilatlarini farzandlar ruhiy dunyosiga katta ta'sir etadi, ruhlanish, to'lg'inlanishi, shijoat, ehtirosni vujudga keltiradi. Ularning ibratli xislatlari, shaxsiy fazilatlarini, irodaviy sifatlarini, o'z-o'zini qo'lga olish kabi jihatlari yigit va qizlar qalbida o'chmas iz qoldiradi. Ota-onaga nisbatan ishonch, intilishi moyillik hamdardlik sifatlarini shakllana boradi. Oilada ruhiy muhit totuvlik mavjud bo'lishi uchun ota-onalarda haqiqiy ma'nodagi nazokat hamda obro' mustahkam shakllangan bo'lishi kerak.

Hozirgi ilmiy adabiyotlarda oilaning ma'naviy asosi masalasida, shaxsning kamol topishi bilan uzviy boo'liq bo'lgan bilim, san'at, arxitektura, milliy, diniy, axloqiy, badiiy va boshqa qadriyat turlari, milliy istiqlol mafkurasi kabi talay ma'naviyat va ma'rifat xususida gapiriladi. Bolaning ma'naviy tarbiyasida oilaning ahamiyati muhimligi ta'kidlanadi [3:23].

Ota-onaning oiladagi moddiy, tashkiliy, tarbiyaviy va o'zaro shaxsiy masalalar yuzasidan bir-biri bilan bo'ladigan munosabatlari sof, samimiy, erning xotiniga, xotinning eriga nisbatan o'zaro hurmati, iffati asosida qurilsagina, bunda u oilada musaffo ma'naviy muhit va hamjihatlik vujudga keladi. Ayniqsa, ota-ona munosabatidagi, ularning bir-biriga mehribonligi, farzandlariga bir xil muomalada bo'lishi, har ikki tomonning qarindosh-urulo'lariga bir xilda mehr-oqibat, hurmat bilan qarashi, bir so'zligi, haqiqatni gapirish kabi (ijobiy fazilatlariga ega bo'lishi, shuningdek, soo'lom hayot kechirishi, chekish, yolo'onchilik, maishiy buzuvchi, dimoo'dorlik, manmanlik va boshqa shu kabi illatlardan holi

bo'lishi oilaviy munosabatlar madaniyatining sofligini ta'minlovchi xususiyatlardir.

Bunday ijobiy xususiyatlarga ega bo'lish, serfarzand oilalarda ham, yoki faqat er va xotin yashaydigan oilalarda ham oo'ir kechadi. Chunki er-xotin turli sharoitda, muhitda tarbiyalangan, ularning qarashlari, ma'lumoti, yoshi, ma'naviy saviyasi va boshqalarda nomuvofiqlik mavjud bo'lishi mumkin. Er-xotinning bir-biriga ko'nikishi, o'zaro hurmati, do'stona munosabatlarning shakllanishi uchun ular orasidagi sevgi dastlabki manba bo'lsa, axloqiy qadriyatlarning gultoji bo'lgan ibo, hayo, xushmuomalalik, mehnatsevarlik, sarishtalik, ozodalik, pazandalik, o'amxo'rlik, mehr-shafqat kabi azaliy odatlarimiz oilani mustahkamlashda ikkinchi manba bo'ladi.

Xulosa. Oilaning jamiyatdagi tutgan o'rni, tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab etmasdan turib, xalqimiz mafkurasini yaratmaymiz. Ushbu so'zlar zahirida oilaning muqaddasligiga ishonch hissi, zo'r ehtirom yotadiki, barchamizga dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. O'zbek oilasi qadimdan ezgulik va sadoqat, ahillik va poklik timsoli bo'lib shakllangan va bugungi kungacha xalqimiz bu an'anani muqaddas saqlagan holda davomiylikni saqlab kelmoqda. O'zbek oilasida an'anaviy tarbiya hamisha bosh mezon bo'lib kelgan va undagi ma'naviy muhit muhim o'rin tutadi. Qush uyasida ko'rganini qiladi, deyilgan xalqimizning mashhur maqoli aynan oiladagi ma'naviy tarbiyani, muhitni shakllantirishda muhim vositadir. Ota-onaning bir-birlariga bo'lgan munosabatlaridan bola andoza oladi va o'zi ham shunga intiladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, olib borilgan tajriba sinov natijalariga asoslanib, oilada dastlabki odob qoidalarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari samaradorligini oshirish uchun quyidagi **tavsiyalarni** taqdim etish mumkin:

- ota-onaga, aka-ukaga, opa-singil, qarindosh-urulo'larga, kekka kishilarga, mahallaguzar aholiga hurmat hissinini farzandlarda shakllantirish;

- farzandlarning ma'rifat va madaniyatga e'tiborini jalb etish ularning badiiy-estetik tarbiyasiga ahamiyat berish;

- farzandlarga ota-bobalarimizdan meros bo'lib kelgan dasturxon odobi, mehmondorchilik, muomala odobi singari ko'nikmalarni singdirish;

- ommaviy axborot vositalari orqali yoritilgan dasturlarning odob-axloqqa molik holatlarini oilaviy muhitga ta'sirchanligini hisobga olgan holda yondoshish;

- maktabda, o'quv yurtlarida, ish joyida o'rtoqlari va hamkasblari bilan odob doirasida muomala qilishni shakllantirish;

- oilada ijtimoiy, ma'naviy muhitni soo'lomlashtirish yo'lida olib borilyotgan tadbirlarni amalga oshirishda farzandlar tarbiyasiga alohida e'tibor berish;

- oiladagi odob-axloqni shakllantirishda umumiy tarzda ota-ona, aka-uka, opa-singil, qarindoshlarga bo'lgan yaxshi munosabatlarni o'zlashtirishni bosh mezon deb tushunish.

Oiladagi odob-axloqni shakllantirishdagi muhim omillardan yana biri mahallada tashkil etiladigan tadbirlarda, yaxshilik va oo'ir kunlarda mahalladoshlar orasida bo'ladigan oqibatli ishlardan farzandlarni ogoh etish va ularning yoshlariga va jinslariga qarab tadbirlarda ishtirok etishlarini ta'minlashdan iboratdir. Umuman olganda o'zbek oilasi hamisha milliy tarbiyaga alohida e'tibor berilgan holda odob doirasidagi ko'rinishlarda tarbiya mezoniga tayanadi. O'zbek oilasida milliy tarbiyani shakllantirish va unga alohida e'tibor berish hamisha bosh vazifa bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Adabiyotlar

1. Otavaliyeva U. Bola tarbiyasida boo'cha va oila hamkorligi. —T.: 1994, 54-b.
2. To'raeva O. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi. —T.: "O'qituvchi", 1998, 41-b.
3. Hasanboeva O. Oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya. —T.: 1998, 23-b.

REZYUME. Ushbu maqolada oilaviy munosabatlar va ularning bola tarbiyasiga ta'siri, bolalarda odob ahloq tarbiyasini shakllantirishda ota-ona, aka-opa, uka-singil munosabatlaridagi tartib qoidalar haqida so'z yuritilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье говорится о семейных отношениях и их влиянии на воспитание ребенка, правилах порядка в родительских, сиблинговых, сиблинговых отношениях в формировании нравственного воспитания детей.

SUMMARY. In this country, they talk about family relationships and its influence on the upbringing of the child, halts in a row in parental, sibling, sibling relationships in the formation of the moral education of children.